



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **18 829** tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1 136** taga yoki **5,6 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **20,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **2 398** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **20,6 %** ga kam demakdir.

2020-2024- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Tuman va shaharlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.

2024- y.

4 300	Navoiy shahri	4 252
3 002	Karmana tumani	2 866
2 734	Qiziltepa tumani	2 590
2 344	Xatirchi tumani	2 141
2 142	Navbahor tumani	1 955
1 435	Zarafshon shahri	1 238
1 346	Nurota tumani	1 235
879	Konimex tumani	920
808	Uchquduq tumani	721
593	Tomdi tumani	495
382	G'ozg'on shahri	416

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **18 829** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 398** tani tashkil etdi.



2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **4 252** tani yoki jamiga nisbatan **22,6 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **20,4** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **1,1** birlikka kamaygan .


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **45,4** birlik, Tomdi tumani **45,2** birlik, Konimex tumanida **29,3** birlik, Navoiy shahrida **26,1** birlik va Karmana tumanida **22,4** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining
har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



G'ozg'on shahrida
– 45,4 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **45,4** birlik, Tomdi tumanida **45,2** birlik, Konimex tumanida **29,3** birlik, Navoiy shahrida **26,1** birlik, Karmana tumanida **22,4** birlik, Qiziltepa tumanida **21,4** birlik, Uchquduq tumanida **20,5** birlik, Navbahor tumanida **19,6** birlik, Nurota tumanida **18,2** Zarafshon shahrida **13,9** birlik, Xatirchitumnida **13,6** birlik kuzatildi.

O'rta ko'rsatkich



Karmana tumanı
– 22,4 birlik.



Eng past ko'rsatkich




Xatirchi tumanı
– 13,6 birlik.




Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda


Karmana tumanı



Konimex tumanı



G'ozg'on shahrida



Navoiy shahri

Tomdi tumanida

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

510	Navoiy sh.	561
462	Karmana t.	312
354	Qiziltepa t.	267
330	Navbahor t.	257
343	Xatirchi t.	236
182	Konimex t.	249
216	Zarafshon sh.	149
189	Nurota t.	110
130	Tomdi t.	88
223	Uchquduq t.	99
79	G'ozg'on sh.	70


2024- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – **23,4** %, Karmana tumani – **13,0** %, Qiziltepa tumani – **11,1** %, Navbahor tumani – **10,7** %, Xatirchi tumani – **9,8** %, Konimex tumani – **10,4** % hamda Zarafshon shahri – **4,6** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shahar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdoda **799** ta, sanoatda **427** ta yangidan tashkil etilgan.

Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **561** ta, Karmana tumanida **312** ta hamda Qiziltepa tumanida **267** ta yangidan tashkil etilgan.

2023- y. **2024- y.**

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **16 267** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – **5 903** (yoki **36,2 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 582** (yoki **20,0 %**) ta, sanoat sohasida – **3 438** (yoki **21,1 %**) ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **2 612** (yoki **16,1 %**) ta va qurilish sohasida **732** (yoki **4,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Yanvar- sentyabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

**2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining
YAHMdagi ulushi dinamikasi , % da**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **25,1** % ni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **3,5** % ga kamaygan.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **98,8** % ni, chakana savdoda **92,9** % ni, yo‘lovchi aylanmasi **87,0** % ni, yo‘lovchi tashishda **86,9** % ni, qurilishda **70,3** % ni , xizmatda **57,4** % tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda





Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 528,5** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**2 024,9** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**1 674,4** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**1 119,6** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**753,4** mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (**638,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdi tumanida (**61,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so'mda



yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrdida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **9,3 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zarafshon shahri, G‘ozg‘on shahri, Uchquduq tumani va Tomdi tumanlari (**100,0 %**), Qiziltepa tumani (**97,2 %**), Nurota tumani (**89,1 %**), Xatirchi tumani (**50,3 %**), Navbahor tumani (**52,4 %**), Konimex tumani (**47,1 %**), Karmana tumani (**23,0 %**) va Navoiy shahri (**2,0 %**) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Zarafshon sh.	100,0
Uchquduq t.	100,0
G‘ozg‘on sh.	100,0
Tomdi t.	100,0
Qiziltepa t.	97,2
Nurota t.	89,1
Navbahor t.	52,4
Xatirchi t.	50,3
Konimex t.	47,1
Karmana t.	23,0
Navoiy sh.	2,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G'ozg'on sh	15,2	100,0
Karmana	331,4	94,8
Xatirchi	282,1	91,3
Navbahor	162,5	85,0
Zarafshon sh	328,2	84,7
Konimex	78,9	80,6
Qiziltepa	524,1	76,6
Navoiy sh	524,3	74,1
Uchquduq	80,2	66,2
Nurota	176,7	55,8
Tomdi	15,3	1,6

hajmi, mld. so'mda

ulushi, % da


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 147,8** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiylajmining **70,3 %**ini tashkil etdi. 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **96,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahrida (**524,3** mlrd. Qiziltepa tumanida (**524,1** mlrd. so'm), Karmana tumani (**331,4** mlrd. Zarafshon shahri (**328,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**282,1** mlrd. so'm), Nurota tumani (**176,7** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumanida (**162,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8 756,2** mlrd. so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **37,4 %** ini tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **86,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Tomdi tumani (**2 631,7** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**1 890,0** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**1 155,3** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**700,6** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**502,8** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**470,2** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**425,2** mlrd. so‘m) hamda Navbahor tumani (**393,3** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ o’sish foizi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **14 884,6** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **102,9** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**4 466,7** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**2 884,1** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**2 398,1** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**1 997,1** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**1 421,4** mlrd. so‘m) hamda Konimex tumani (**737,9** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Zarafshon sh	64,8	100,0
Uchquduq	331,7	100,0
Qiziltepa	2 884,1	99,9
Navbahor	2 398,1	99,9
Tomdi	444,5	99,9
Navoiy sh	64,3	99,6
Xatirchi	4 466,7	99,3
Karmana	1 997,1	99,2
Nurota	1 421,4	98,7
Konimex	737,9	88,3
G‘ozg‘on sh	73,9	86,7

hajmi, mlrd. so‘mda *ulushi, % da*

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 164,2** mld. so‘mni yoki umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining **92,9** % ini tashkil etib, o‘sish sur‘ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **109,0** % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Karmana	1 258,4	100,0
Uchquduq .	450,7	99,7
Tomdi	79,9	99,3
Qiziltepa	1 055,4	98,4
Nurota	478,4	97,7
G‘ozg‘on sh	8,7	97,7
Xatirchi	1 174,8	97,6
Konimex	291,6	96,1
Navbahor	499,6	90,4
Zarafshon sh	860,4	89,0
Navoiy sh	2 721,3	87,3

hajmi, mldr. so‘mda
ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**2 721,3** mld. so‘m), Karmana tumani (**1 258,4** mld. so‘m), Xatirchi tumani (**1 174,8** so‘m), Zarafshon shahri (**860,4** mld. so‘m), Navbahor tumani (**499,6** mld. so‘m) Uchquduq tumani (**450,7** mld. so‘m) va Nurota tumani (**478,4** mld. so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda



yashirin iqtisodiyotni qo‘shgan holda

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 923,4** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,4** % ni tashkil qildi va o‘sish sur‘ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**1 521,3** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**898,0** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**683,2** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**675,1** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani, (**581,5** mlrd. so‘m) Navbahor tumani (**422,8** mlrd. so‘m) va Nurota tumani (**337,6** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi
(2024-yil yanvar-sentabr)

1 2 878,5	Savdo xizmatlari	95,7
2 048,9	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	65,9
1 530,7	Transport xizmatlari	91,8
314,4	Shaxsiy xizmatlar	99,9
282,6	Boshqa xizmatlar	38,2
204,7	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	98,5
164,3	Ko‘chmas mult bilan bog‘liq xizmatlar	65,9
124,5	Ijara xizmatlar	98,3
109,0	Me’morchilik, muhandislik izlanishlar texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizma	22,1
105,1	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	54,1
75,2	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	10,1
74,7	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	16,4
10,7	Moliyaviy xizmatlar	0,4

Hajmi, mln. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,9 %** (**314,4** mln. so‘m), Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarida – **98,5 %** (**204,7** mln. so‘m), Ijara xizmatlarida – **98,3 %** (**124,5** mln. so‘m) hamda savdo xizmatlarida **95,7 %** (**12 878,5** mln. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (**10,7** mln. so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi


Karmana	22 224,5	29,4
Qiziltepa	10 854,9	95,4
Navoiy sh	8 857,7	1,3
Xatirchi	4 464,6	8,2
Navbahor	3 312,5	20,0
Zarafshon sh	2 399,2	99,0
G‘ozg‘on sh	2 202,4	100,0
Konimex	1 806,6	100,0
Nurota	1 628,2	31,1
Uchquduq	1 034,6	99,4
Tomdi	474,5	100,0

hajmi, ming AQSH dollar ulushi, % da

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **59 334,7** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **7,1** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi G‘ozg‘on shahrida, Tomdi tumanida, Konimex tumanida – **100,0** %, Uchquduq tumanida – **99,4** %, Zarafshon shahrida – **99,0** %, Qiziltepa tumanida – **95,4** %, Nurota tumanida – **31,1** %, karmana tumanida – **29,4** %, Navbahor tumanida – **20,0** % va Xatirchi tumanida – **8,2** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Navoiy shahrida – **1,3** % ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **129 716,9 ming AQSH dollarini** yoki jami importning **36,7 %** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi va Uchquduq tumanlarda -**100,0 %**, Zarafshon shahri - **94,3 %**, Qiziltepa tumanida - **93,3 %**, Konimex tumanida - **92,7 %**, Nurota tumanida - **91,8 %**, Navbahor tumanida - **62,9 %** hamda Xatirchi tumanida **58,9 %** ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

8,2 %

Yuk
tashishda

38,6 %

Yuk
aylanmasida

86,9 %

Yo'lovchi
tashishda

87,0 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **95,7 %** ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,9 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,0 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 963 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 491 (51,0%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 439 (45,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 33 (3,4 %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 43,3 % (417 ta), xizmatlar sohasida – 34,7 % (334 ta), sanoatda – 10,6 % (102 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 7,1 % (68 ta), qurilishda – 4,4 % (42 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi

216	Navoiy sh.	22,4
154	Karmana t	16,0
146	Qiziltepa t.	15,2
106	Xatirchi t.	11,0
82	Navbahor t.	8,5
72	Nurota.t	7,5
63	Konimex t	6,5
58	Zarafshon sh	6,0
26	G’ozg’on sh.	2,7
20	Tomdi t.	2,1
20	Uchquduq t.	2,1


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (**216** ta), Karmana tumani (**154** ta), Qiziltepa tumani (**146** ta) va Xatirchi tumani (**106** ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **372** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga kelib esa **491** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **119** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **368** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **439** ta yoki **71** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **27** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga kelib **33** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **6** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **390** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **446** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **56** taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **238** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **413** taga yetgan yoki **175** taga oshgan.O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **10** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib, bu ko'rsatkich **27** tani tashkil etib, **17** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **48,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **51,0** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **2,5** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **47,9** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabriga **45,6** % yoki **2,3** % ga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **3,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko‘rsatkich **3,4** % ga yetgan yoki **0,2** % ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar yanvar-sentabr oylarida umumiyl iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **61,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **46,3** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **14,8** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **37,3** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **43,0** % yoki **5,7** % ga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqrsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **1,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib, bu ko‘rsatkich **3,0** % yoki **1,4** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **58,1** % ni savdo sohasida - **54,6** % ni, xizmatlar sohasida - **49,6** % ni, sanoat sohasida-**12,1%** ni tashkil etdi,

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **58,1** % ni, xizmatlar sohasida – **49,2** % ni, sanoat sohasida – **47,6** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **5,6** % ni, xizmatlar sohasida –**3,9** % ni, savdo sohasida – **3,6** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **62,8** % ni, sanoat sohasida – **49,2** % ni, savdo sohasida – **49,2** % ni xizmatlar sohasida – **47,0** % ni va qurilish sohasida - **43,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida - **52,7** % ni, xizmatlar sohasida – **51,7** % va sanoat sohasida – **49,2** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **4,1** % ni, savdo sohasida – **2,0** % ni va sanoat sohasida – **1,6** % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,8	45,6	4,3
Band bo'lganlar soni	15,8	74,9	2,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	26,0	62,2	4,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	20,8	67,7	3,9
Raqobat muhiti	28,9	62,1	1,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,1	53,0	2,9
Band bo'lganlar soni	18,8	80,0	1,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	27,4	68,8	3,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	23,4	73,0	3,6
Raqobat muhiti	31,6	66,9	1,6

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da**



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin
3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da**



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli